



## 2018 yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **60,3 trln.so'mni**, o'sish **11,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **105,5 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **30,3 % ni** tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **28,7 % ni** tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni - **51605 birlikni** tashkil etadi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalari tomonidan 60,3 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,8 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 5,9 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning – 35,4 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 5,1 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 3,1 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,3 punkt) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 35,4 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 0,3 punkt) o'sishi hisoblanadi.

### 2018 yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,4 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,9 martaga, kaolin - 44,8 % ga, gaz kondensati – 20,3 % ga va tabiiy gaz – 6,7 % ga oshganligini, shu bilan birga neft qazib olish hajmining 9,8 % ga va ko'mirning – 0,8 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

### **Yanvar-aprel oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Ko'mir, ming t.</b>			
1266,7		1256,0	99,2 
<b>Neft, ming t.</b>			
276,8		249,7	90,2 
<b>Tabiiy gaz, mln.kub.m.</b>			
18278,8		19510,8	106,7 
<b>Gaz kondensati, ming t.</b>			
592,7		712,8	120,3 

### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2018 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,5 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 73,8 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,2 % ni (2017 yil yanvar- aprel oylarida - 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 27,7 % (19,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 30,9 % (26,4%) va quyi texnologiyali - 40,2 % (52,3 %) tashkil etdi.

#### **Yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan traktor ishlab chiqarish 11,4 martaga, avtomobil dvigatellari 37,9 % ga, akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar – 31,4 % ga, yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilganlarsiz) – 26,4 % ga, dizel yoqilg'isi – 15,4 % ga, o'simlik yog'i (tozalangan) – 7,2 % ga, avtomobil benzini – 3,7 % ga va paxta tolasi – 1,9 % ga oshganligini va avtobuslar, yuk avtomobillari, portlandsement va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

**Yanvar-aprel oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------	---	-------------------------------	-------------------

**Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilgansiz), dona**

40366



51005

126,4



**Yuk avtomobilari, dona**

1204



854

70,9



**Avtobuslar, dona**

300



144

48,0



**Avtomobil dvigatellari, dona**

29581



40780

137,9



**Paxta tolasi, ming t.**

448,1



456,4

101,9



**O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.**

82,3



88,2

107,2



2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b>Tamaki mahsulotlari, mln. dona</b>			
3370,0		3345,0	99,3
<b>Avtomobil benzini, ming t.</b>			
365,5		378,9	103,7
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
336,2		387,9	115,4
<b>Portlandsement, ming t.</b>			
2682,3		2415,6	90,1
<b>Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.</b>			
2855,3		3752,1	131,4
<b>Traktorlar, dona</b>			
71		806	11,4 m.



### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,8 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,9 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 0,6 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 620,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lган ikkilamchi xom ashyoni – 79,1 % ga, tarkibida alyuminiy bo'lган ikkilamchi xom ashyoni – 50,9 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 19,1 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 14,8 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 18,3 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 5,5 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 30,3 % ni tashkil etdi.

#### **2018 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 49,2 % dan 2018 yilning yanvar-aprel oylarida 61,0 % ga oshishi kuzatilmoqda.


### Yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %



### *Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.*

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati va Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,1 % dan ulushini), Navoiy (11,8 %), Andijon (10,2 %), Qashqadaryo (7,2 %), Farg'ona (6,2 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### *2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari*



Shu bilan birga eng kam ulushi Surxondaryo (1,4 %), Jizzax (1,5 %), Sirdaryo (2,1 %), Namangan (2,3 %) va Xorazm (2,8 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Surxondaryo (2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 141,5 % ga), Andijon (129,4 % ga), Xorazm (117,7 % ga), Qashqadaryo (112,4 % ga) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (112,9 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

### ***2018 yil yanvar-aprel oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (7423,7 ming so'm), Toshkent shahrida (3931,8 ming so'm), Toshkent (3394,8 ming so'm) va Andijon (2031,2 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (1841,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

### ***2018 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha aholi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari***




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 138,6 % ga), Andijon (127,3 % ga) va Xorazm (115,8 % ga) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Buxoro (97,0%) va Samarqand (99,0%) viloyatlarida o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 28,7 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 66,9 %), Namangan (56,9 %), Samarqand (52,2 %) va Jizzax (51,1 %) viloyatlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (11,8 %), Navoiy (11,9 %), Toshkent (16,2 %) va Qashqadaryo (17,4 %) viloyatlarida kuzatildi.


#### **2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



### ***Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.***

Bugungi kunda respublikada 51,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 12474 ta korxona Toshkent shahriga, 5684 ta Farg'ona, 5394 ta Toshkent, 5110 ta Andijon, 4061 ta Samarqand, 4045 ta Namangan, 2353 ta Buxoro, 2244 ta Xorazm, 2224 ta Qashqadaryo, 2004 ta Jizzax, 1789 ta Surxondaryo, 1587 ta Navoiy, 1128 ta Sirdaryo viloyatlariga va 1508 ta korxona Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi.

#### ***2018 yil 1 may holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik***





davomi

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida respublikada 4 mingga yaqin yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 70 % Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent, Andijon, Samarqand va Namangan viloyatlariga to'g'ri keladi.

**Davlat statistika qo'mitasining  
Sanoat statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

J.Sharipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46